

FOROBIYNING "FOZIL ODAMLAR SHAHRI" ASARINING ILMIY TAHLILI

Hoshimova Malikabonu Shamshodovna

Osiyo xalqaro universiteti, 3-FT(O')-24 guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14539990>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida oqilona davlat tuzimi, insoniyat jamiyati haqida nodir va dono fikrlar bilan tanishib o'tamiz. Ushbu kitobda "Arastu falsafasi", "Ilmlarning kelib chiqishi tog'risida" asarlaridan, "Ilmlar tasnifi haqida" risolasidan namunalar kiritilgan. Tarixchilarga, adiblarga, faylasuflarga va shu soha bilan qiziquvchi o'quvchi va talabalarga mo'ljallangan. Kitobda Aflotun qonunlari mohiyati, Arastu falsafasi va she'r san'ati haqida so'z boradi va mukammal tarzda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Abu Nasr Forobiy, "Fozil odamlar shahri" asari, "Muallimi assoniy", "Sharq Arastusi", "Ilmlarning kelib chiqishi haqida", "Ilmlarning tasnifi haqida" risolalari.

SCIENTIFIC ANALYSIS OF FORABI'S "THE CITY OF THE VIRTUOUS"

Abstract. In this article, we will get acquainted with the rare and wise thoughts about the rational state structure and human society in Abu Nasr Al-Farabi's "The City of the Virtuous" work. This book includes examples from the works "The Philosophy of Aristotle", "On the Origin of Sciences", and the treatise "On the Classification of Sciences". It is intended for historians, writers, philosophers, and readers and students interested in this field. The book discusses and perfectly illuminates the essence of Plato's laws, the philosophy of Aristotle and the art of poetry.

Keywords: Abu Nasr Al-Farabi, the work "The City of the Virtuous", "The Teacher of the East", "On the Origin of Sciences", "On the Classification of Sciences" treatises.

НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ РАБОТЫ ФОРАБИ "ГОРОД ДОБРОДЕТЕЛЬНЫХ ЛЮДЕЙ".

Аннотация. В этой статье мы познакомимся с редкими и мудрыми мыслями о рациональном государственном устройстве и человеческом обществе в произведении Абу Насра Фараби «Город добродетельных людей». В книгу включены образцы из сочинений «Аристотелевская философия», «О происхождении наук» и «О классификации наук». Она предназначена для историков, писателей, философов, а также читателей и студентов, интересующихся этой областью. В книге рассказывается о сути законов Платона, философии Аристотеля и искусстве поэзии, и это прекрасно объясняется.

Ключевые слова: Абу Наср Фараби, книга «Город добродетельных людей», трактаты «Муаллими Ассаньи», «Араст Востока», «О происхождении наук», «О классификации наук».

Avvalambor, bu nodir kitobimizning muallifi haqida gapirib o'tsam, Abu Nasr Farobiy Forobda o'qigan, Shomda bo'lgan, Buxoro va Samarqandda ta'lim olgan. U 160 dan ortiq asar yozgan. Bundan tashqari O'rta Osiyoning qomusiy olimi. Yunon falsafasini chuqur bilgani, va unga sharhlar bitganligi, fanlar rivojiga katta hissa qo'shgani uchun "Muallimi assoniy", "Sharq Arastusi" kabi nomlarga sazovor bo'lgan. Farobiy ilk o'rta asrda, Sharq Uyg'onish davrida yashab ijod etgan. Alloma, eng avvalo, Arastu asarlariga sharhlar bitgan, uning naturfalsafiy g'oyalarining targ'ibotchisi va davomchisi sifatida tanilgan. Shuningdek, Aflotun, Aleksandr Afrodiziyskiy, Yevklid asarlariga sharh yozgan. U "Ilmlarning kelib chiqishi haqida", "Ilmlarning tasnifi haqida" nomli risolasida o'sha davrda ma'lum bo'lgan 30ga yaqin ilm sohasining tavsifi va tafsilotini bayon qilib berdi.

O'rta asr fanining taraqqiyotida Forobiyning ilmlar tasnifi muhim rol o'ynadi. Olimning "Ilmlarning kelib chiqishi haqida", "Ilmlarning tasnifi haqida" risolalarida 30 ga yaqin ilm sohasining tartibi, xarakteristikasi va tafsilotini berdi. Ilmlarning strukturasi va tizimini baholashda Forobiy asosan materialistik prinsipdan kelib chiqib, ilmda borliqning birdan-bir holati aks etishdan iborat obyektiv mezonni ilgari surdi. Forobiy fikricha, har bir fan substantsiyaning muayyan tomonini, moddiy jismlarning muayyan guruhi yoki xususiyatini o'rganadi. Olim tabiat va inson organizmiga xos bo'lgan tabiiy jarayonlarni o'rganuvchi ilmlarni birinchi o'ringa qo'ydi.

Umuman Forobiy ilmlarning quyidagi strukturasi keltiradi

1. Til haqidagi ilm. U yetti bo'limdan iborat bo'lib, grammatika, poetika, to'g'ri yozuv va boshqalarni o'z ichiga oladi.

2. Mantiq. Sakkiz bo'limdan, jumladan tushuncha, muhokama, xulosa hamda muhokama metodiga taalluqli sillogistika, dialektika, sofistika va boshqalardan iborat besh bo'limni o'z ichiga oladi.

3. Matematika, yetti mustaqil ilm: arifmetika, geometriya, optika, sayyorlar, muzika, og'irlik, mexanika haqidagi ilmlardan iborat.

4. Ilm at-tabiiy va ilm al-ilohiy-tabiiy va ilohiy ilmlar yoki metafizika.

5. Siyosat ilmi (ilm al-madaniy-shahar haqidagi ilm, shaharni boshqarishilmi), yurisprudentsiya (fiqh) va musulmon teologiyasi(kalom). Mutakallimlar kalomini bilishning, filosofiyaning universal metodi, islomning nazariy asosi deb hisoblanganlari holda Forobiy boshqa ilmlar orasida unga juda kam o'rin bergan. Bu bilan Forobiy ortodoksal islom tarafdorlari talqinidagi kalomning hamma narsani o'z ichiga olish xarakterini inkor etadi.

Forobiyning "Ilmlar tasnifi haqida" risolasining kirish qismida Forobiy o'zining ilmlarning tasnifi bo'yicha ishidan maqsadi haqiqatni o'rganish va tasdiqlashdan, uni yolg'ondan va haqiqat sifatlikdan farqlashdan iborat, deydi. Shu munosabat bilan u bilishning qiyinchiliklarini bayon etadi, olimning yuksak mas'uliyatini ta'kidlaydi, hamda ilmiy bilish masalalariga dogmatik

munosabatda bo'luvchi, shuningdek, aslida ilmning mohiyatini tushunmasdan turib, hamma narsani bilishni da'vo qiladigan kishilarni tanqid qiladi. Fikrimcha, bu to'g'ri. Chunki, inson ilmning mohiyatini bilmay turib, anglamay turib, hamma narsani bilishini da'vo qilishi-bu nodonlikdir. Ilm olishning chek-chegarasi yo'q. U xoh ilmiy, xoh dunyoviy bo'lsin har bir inson ilm olishi shart. Inson bilimi, aqli, fikrlashi bilan hayvondan ajralib turadi. Agar inson ilm nuri bilan o'z yo'lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko'chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma'rifat bilan baquvvat bo'ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo'ladi. Ilmdan hali hech kim zarar ko'rgan emas. Ilmni egallab olish esa bir san'atdir. Demak, bir so'z bilan aytganda ilm o'rganish farzdir.

Forobiy "Fozil odamlar shahri" kitobining "Aflotun qonunlari mohiyati" qismida Aflotunning davlat boshqaruvi haqidagi quyidagi fikrlarini keltiradi: Aflotun "shahar aholisi qanchalik mehr-shavqatli bo'lsa, ularni boshqaruv shunchalik yuqori darajada ilohiy bo'ladi" deb hisoblaydi. Agar ularning hokimi noloyiq bo'lsa, u holda, toki u ilohiy avlodga mansub shahar hokimi bo'lish darajasiga yuksalmagunicha, aholining ba'zi ozgina qismidan tashqari, boshqa o'z hukmi ostidagilar bilan til topisha olmaydi. So'ngra u aytadiki: "Boshqaruv turlarining soni qonunchilikning soniga mutanosibdur, chunki hokimiyat qonunlarga bo'ysunadi, ulardan hosil bo'ladi va ularga asoslanadi. Boshqaruv ham qonunlarning soniga va qadriyatiga bog'liq. Yaxshi boshqaruv - yaxshi qonunlarga bog'liq, yomon boshqaruv - yomon qonunlarga, yetuk boshqaruv - yetuk qonunlarga bogliq".

Aflotun aytadiki: "o'zining kamoloti yoxud davlati bilan shuhrati bilan hamda tahsinga sazovor bo'lmaydigan va dilxush hisoblanmaydigan biror fazilati bilan kekkayib yuruvchi hokimlar takabbur hokimlardir, aslida hokim, fuqarolarning pokdomonligiga e'tibor berishi, hamda o'z shaxsiyati va ko'ngilxushligi bilangina shug'ullanuvchi ba'zi behayolarga xudo nomidan shavqatsiz munosabatda bo'lishi, go'zal va dilxush taassurot qoldirmaydiganlarga muruvvat ko'rsatmasligi zarur". Aflotun, hokimning nimalarga e'tibor berishi haqida yozadi. Bu avvalo-moddiy huzur, so'ngra ruhiy, keyin ulardan tashqari bo'lgan boshqa narsalar, o'z navbati bilan. Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, davlatni boshqarish uchun yetrlicha savodli, ilimli, va ma'rifatli bo'lish kerak. Eng asosiysi adolat bilan boshqarish zarur, xalq dardini tinglab, unga yechim topishi lozim, o'shanda davlat ham mustahkam bo'ladi. Xalqni ilimli, savodli qilish kerak, davlatning kelajagi ham shunga bog'liq. Ilimli xalq hech qachon xor bo'lmaydi.

Arastuning fikricha, zaruriy bilimlar xuddi odam bilan dunyoga kelganday unga tug'ilishdan beri taalluqlidir, ular his-tuyg'u orqali erishilganidan ko'proq tabiatdan ehson qilingandirlar. Ba'zan inson o'sha istalinyotgan maqsadlarning sog'lomliklariga yetishmoq uchun his-tuyg'udan olgan bilimlardan foydalanadilar. So'ngra, Arastu aytadiki, insonga erishilgan bilimlar yetarli bo'lmaganidan, u inson tug'ma bilimlardan foydalanishga intiladi.

Arastu fanlarga rag'bat qilib, ularni o'rganib, tahlil etib inson ulardan ba'zilarini ishonchli va haqiqiy, ba'zilarini esa - bo'sh va ahamiyatsiz ekanligini bilib oladi. Ammo u o'z izlanishlari tufayli haqiqatga olib boruvchi yo'lda turgan bo'lsa, u idrok etmoqchi bo'lgan narsa haqidagi kamolot darajasi bo'ladi, bu barkamollik, o'zining haqqoniyligi bilan intihosiga yetib bormagan bir chegara, o'zidan keyin yana bir xaddi bor manzildir. Amaliy fanlarga erishish borasida insonning holati shunday tasavvur etiladi.

Arastu, amaliy fanlarga erishishning uchta usuli bor deb tushuntiradi, ular:

- 1) his-sezgi yordamida;
- 2) his-sezgi orqali erishilgan bilimlardan miqdor jihatdan ko'proq bo'lgan birinchi (jibilliy) bilim yordamida;
- 3) tahlil, tekshiruvlar yordamida.

Nazariy fanlarda ham shular borgan o'xshaydi. Erishishning uch usuliga idrok etishning uch usuli to'g'ri keladi:

- 1) his-sezgilar;
- 2) his-sezgidan olingan bilim ma'lumotidan ko'proq bo'lgan birinchi bilim ma'lumotlari;
- 3) tekshiruv, tahlil natijasida olingan ma'lumotlar.

Tekshiruv, tahlil natijasida olingan bilimlarni dastlab, hali tekshirilmagan narsalardan olinadi. O'rganib, tekshirib, chiqishdan avval ular izlanilayotgan maqsad bo'lganlar va "idrok etish nuqtalari" deb atalganlar. Fan talab etadigan jihatni aniqlash uchun foydalaniladigan dastlabki ma'lumotlar "Muqaddimot" deb ataladilar. Fan tekshiradigan narsalarni "Matlub al-maqsad" deb, o'rganilganlarini esa - "Xulosot" deb atadilar. Shunday qilib, bu uch narsaning hammasi oldindan mavjuddirlar.

Xulosa qilib aytganda, buyuk mutafakkirimiz Forobiy "Fozil odamlar shahri" kitobi orqali bugungi yoshlarning egallashi kerak bo'lgan odob-axloq, ilm-hunar, kasb, ma'naviy- axloqiy sifatlarini aytib o'tadi, davlat boshqaruvi to'g'risida dono fikrlar bildiriladi, insonlarni ilmga bo'lgan salohiyatini oshiradi, yoshlarni ilm olishga da'vat etadi. Bu kitobni o'qib inson o'ziga ma'naviy ozuqa oladi, fikr doirasini kengaytiradi.

REFERENCES

1. Forobiy "Fozil odamlar sharhi"
2. M. R. Tagiyev. "O'rta asr falsafasi".
3. Toshpo'latova, S. (2024). TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI METODLAR. *Modern Science and Research*, 3(11), 774-782.

4. Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRIS METODIKASI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14520996>
5. Тошполатова, Ш. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.
6. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
7. Toshpo'latova, S. (2024). O'RTA ASRLARDA OILA PEDAGOGIKASIGA OID FIKRLAR. *Modern Science and Research*, 3(12), 353-361.
8. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
9. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
10. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
11. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.
12. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV-O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.
13. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research*, 3(2), 87-93.
14. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004-1011.
15. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.
16. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. *Modern Science and Research*, 3(1), 504-510.
17. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). MS Andreyev'S Way Of Life. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 655-659.
18. Shuhratovna, T. S. (2023). Ethnological Analysis Of National Costumes And Rituals Of Tajiks In The Works Of MS Andreyev. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42-47.
19. Toshpo'latova, S. (2023). MS Andreyev-Scientific Career. *Modern Science and Research*, 2(12), 801-807.

20. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17-23.
21. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV-" ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404-409.
22. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRIAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291-299.
23. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84-89.
24. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). Marriage Ceremony Of Tajiks In The Work Of Mikhail Stepanovich Andreyev "Tadjiki Dolini Khuf". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12-16.
25. Toshpo'latova, S. S. (2023). Tojiklar Milliy Kiyim-Kechaklari Va "Beshmorak" Marosimining Etnologik Tahlili. *Scholar*, 1(28), 395-401.
26. Muxamedovna, G. M. (2023). MAKTABLARDA TARIX FANINI O'QITISH AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(5), 178-180.
27. Muxamedovna, G. M. (2023). TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(5), 175-177.
28. Gadayeva, M., & Ismoilova, Z. (2024). The Importance Of Studying The Science Of Youth Psychology In Improving People'S Lives. *Modern Science and Research*, 3(2), 676-683.
29. Gadayeva, M., & Hamroqulova, N. (2024). The Basis Of The Use Of Development-Pedagogical Skills In Pedagogical Activity. *Modern Science and Research*, 3(2), 684-689.
30. Gadayeva, M. (2024). ABOUT THE HISTORY OF THE VEIL OR MEDIEVAL WOMEN'S DRESS. *Modern Science and Research*, 3(2), 1097-1103.
31. Gadayeva, M. (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459-464.
32. Universiteti, G. M. M. O. X. (2023). Uchinchi Renesans Davrida Ajdodlarimiz Merosini Organish Orqali Integratsion Ta'Limni Yanada Takomillashtirish Tamoyillari: Часть 1 Том 1 Июль 2023 Год. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 1(1), 11-16.
33. Gadayeva, M. (2024). Attack Action. *Modern Science and Research*, 3(1), 1028-1033.

34. Gadayeva, M. (2023). ONE OF THE TIMURID QUEENS IS BIBIKHONIM. *Modern Science and Research*, 2(12), 749-754.
35. Gadayeva, M. (2024). Effective Ways To Use The "Thoughtstorm" Method On The Theme Of The "Eastern Renaissance" Era. *Modern Science and Research*, 3(1), 1024-1027.
36. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEKANIZMLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 12-14.
37. Muxamedovna, G. M. (2023). Uchinchi renesans davrida ajdodlarimiz merosini organish orqali integratsion ta'limni yanada takomillashtirish tamoyillari. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 22(1), 35-38.
38. Muxamedovna, G. M. (2023). History Of Patriotic Women. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 69-75.
39. Muxamedovna, G. M. (2023). Innovatsion TaLim-Buyuk Kelajak Poydevori. *World scientific research journal*, 17(1), 74-76.
40. Mukhamedovna, G. M. (2024). The Sad Fate Of The Women Of Turkistan: About The "Hujum" Movement And Its Impacts On Agriculture. *SPAST Reports*, 1(7).
41. Muxamedovna, G. M. (2024). TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(5), 97-102.